

TARBIYANING FALSAFIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

O'ktamov Tohirjon G'ayrat o'g'li

Namangan davlat universiteti Tarix yo'nalishi talabasi

[Tel: +998943519559](tel:+998943519559)E-mail: oktamovtohir2@gmail.com

Anotatsiya: Mazkur maqolada tarbiyaning metodologik asoslari, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini yoritilgan. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, ularning olib borish jarayoni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, tarbiyaviy ishlar, aqliy tarbiya, jismoniy tarbiya, ekologik tarbiya, huquqiy tarbiya, fuqarolik tarbiyasi.

Bugungi global dunyoda yoshlarni kelajak uchun foydasi tegadigan yetuk shaxs sifatida shakllanishida tarbiyaning o'rnini ham alohidadir. Global dunyoda shakllanib kelayotgan yosh avlodni yot g'oyalarga xolisona baho bera oladigan qilib tarbiyalashda tarbiyaning ahamiyati muhimdir. Tarbiya fani jamiyatga to'laqonli tayor shaxsni tayyorlovchi fan desak bo'ladi. Tarbiya aniq maqsad va tarixiy asosida yosh avlod ongini har tomonlama o'stirish va ularning dunyoqarashini kamol toptirish jarayonidir. Tarbiya jarayoni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, xis tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar xosil bo'lgan. Tarbiyaning bosh maqsadi yosh avlodni ma'naviy – axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy tarixiy an'analarga, urf – odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir. [3.- B 7]

Tarbiyaning metodologik asoslari bu tarbiya jarayonini tashkil etish, rejalashtirish va amalga oshirishning nazariy tamoyillari va uslublarini belgilab beruvchi ilmiy asosdir. Bu asoslar pedagogika fani, ijtimoiy, falsafiy va psixologik bilimlarga tayangan holda shakllantiriladi.

Bugungi kunda ham yoshlarni kelajakda yetuk shaxs bo'lib yetishishi uchun ularga to'g'ri ta'lim va tarbiya berish zarurdir, zero ta'lim va tarbiya shaxsda ma'naviy axloqiy sifatlar tashkil topadi. Shu o'rinda birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning quyidagi fikrlarini aytib o'tsak: "Albatta, ta'lim – tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan muhim omildir. Binobarin, ta'lim – tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi.. har qaysi ota – ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rish kerak. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozimdeb qabul qilishimiz kerak. Bu esa

ta’lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi. Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bolmaydi — bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”. [1.- B.61-62]

Yoshlar tarbiyasi jarayoni doimiy sabr – toqatni talab qiladi. Yoshlarga tarbiya berish bu faqatgina bilim berish emas, balki ularni shaxs sifatida shakllanishiga yordam berishdir. Bu borada tarbiya ishlarini to’g’ri tashkil etish zarur. Tarbiya ishlarini tashkil etishning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- maqsadning aniq mezonlarda ifodalanishi;
- faoliyat maqsadini amalga oshirishda xizmat qilishi;
- bolalar tarbiyasidagi faoliyatni o’qituvchi, ota – ona va jamoa bilan hamkorlikda boshqaruvni ta’minlash muhimdir.

Tarbiya ishlarini tashkil qilish va uning salohiyatini oshirish bola qalbida insoniy fazilatlarni singdirish ko’p jihatdan tarbiyachi-tarbiyalanuvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishga bog’liq. Ular quyidagi omillarni qo’llash asosida vujudga keladi:

- Tarbiya jarayonini tashkil qilishdagi munosabatlar. Bunda tarbiyalanuvchilarning kundalik hayotiy voqyealari jamoadagi tartib qoida va xulqatvorlar haqidagi motivlar va ularga bir butun yondoshuv kabilardir;

- Tarbiya ishlarining maqsadi, aniqligi va ta’sirchanligi. Tarbiyaviy jarayonni loyihalashtirish, shakl, metod, shart – sharoitlarni oldindan aniqlab qo’yilgan maqsadga muvofiqlashtirish;

- Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o’zaro munosabatlari. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning ruhiy holatlari, muloqat va munosabatda bo’lishlari, ruhiy shart – sharoitlar yaratilishi, tarbiyaviy tadbirlarni gigiyena qoidalariga moslash, estetik talablarga javob berishi, Tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli tashkil etish funksiyalaridan biridir.

- O’quvchi – yoshlarning faolligi va mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etish. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilishda o’quvchi yoshlarning faolligi ko’p jihatdan ixtiyoriylik, tashkilotchilik va ijodkorligiga bog’liq;

- Tarbiya ishlari ta’lim jarayonida olgan bilimlariga uyg‘un bo’lishi. [3. – B 8]

Tarbiya ishlari metodikasi yosh avlodni har tomonlama barkamol avlod qilib tarbiyalash, ular ongiga milliy g’oyani singdirishda har tomonlama ta’sir ko’rstadi. Buni amalga oshirish uchun tarbiya fani har xil fanlar bilan aloqlar olib boradi. Tarbiya ishlari bajarilishi sharoitlariga qarab o’ziga xos ko’rinishlarda asoslanadi. Ular aqliy va jismoniy ko’rinishda bo’ladi:

Aqliy tarbiya – shaxs dunyoqarashini shakllanishida aqliy tarbiya muhim o’rin tutadi. Aqliy tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to’g’risidagi bilimlarni berish, uning aqliy qobiliyati, tafakkurini shakllantirishgayo’naltirilgan pedagogik faoliyat bo’lib, uni samarali yo’lga qo’yish asosida dunyoqarash shakllanadi. Aqliy tarbiya jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

1. Tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish.
2. Ularda ilmiy bilimlarni o’zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish.

3. Mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.

4. Bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg‘usini shakllantirish.

5. Bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar va xususiyatlarni rivojlantirish.[3. –B 9-10]

Fuqarolik tarbiyasi- fuqarolik mohiyatini anglatish orqali o‘quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlari yo‘lida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon. Fuqarolik tarbiyasining markaziy obekti fuqaro sanaladi. Fuqarolik huquqiy va axloqiy mmeyorlarga ongli rioya etish, ma‘lum huquqlardan foydalanish hama burchlarni bajarishga masulllik bilan yondashuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma‘naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik. Fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda shaxsga davlat konstitutsiyasida ko‘rsatilgan huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarish xususida ma‘lumotlar beriladi. [3. –B 13]

Huquqiy tarbiya- fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Huquqiy tarbiya shaxs tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy – huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. [3.-B 19]

Ekologik tarbiya- ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ekologik tarbiya o‘quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof - muhit muhofazasini tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Bugungi kunda ekologik muammolar umumjahon muammosiga aylangan.[3. –B 13] Shu sabali yoshlarga ekologik tarbiya berish muhimdir.

Jismoniy tarbiya – muntazam ravishdagi jismoniy mashqlar kishi organizmining har qanday muhitga chidamliligini oshirishga, sog‘ligini mustahkamlashga, ongli ravishda uzoq umr ko‘rish imkoniyatlarini kuchaytirishga qaratilgan faoliyatdir. Hozirgi kunda hukumatimiz, jismoniy tarbiyani davlat siyosati darajasiga ko‘tardi. Jumladan, “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, “Universiada” kabi Respublika miqyosidagi musobaqalar davlatimiz tomonidan yoshlarni ham jismonan, ham ma‘nan yuksalishiga qaratilgan tadbirlardan biri hisoblanadi.[3.- B 22]

Tarbiyaning samaradorligi milliy qadriyatlar, tarixiy an‘analar va umumbashariy tamoyillarga asoslangan holda ta‘lim-tarbiya jarayonlarini uyg‘unlashtirish bilan belgilanadi. Yoshlarning faolligi, ijodiy qobiliyatlari va mustaqil fikrlashini shakllantirishda tarbiya ishlari metodikasining ahamiyati katta. Shuningdek, aqliy, jismoniy, fuqarolik, huquqiy va ekologik tarbiya sohalarining har biri yoshlarni har tomonlama rivojlantirishda alohida o‘rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, tarbiya nafaqat shaxsning individual rivojlanishini, balki jamiyatning kelajakdagi poydevorini ham belgilaydi. Shu sababli, tarbiyaga ilmiy va ijodiy

yondashuv zarur bo‘lib, bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tarbiyachi va jamiyatning hamkorligi muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I. Karimov. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch, T: Ma`naviyat -2010.- 176 b.
2. T. Ismoilov. Tarbiya (maruza matni), Namangan – 2023. 293 b.
3. X. Худойкулов. Тарбиявий ишлар методикаси, Термиз – 2020.225 б